



OYBEKNING MUKAMMAL ASARLARIDAN “NAVOIY” ROMANI

Muxayyo Mamadalieva

Dotsent: **Nodira Yusupova**

Toshkent To'qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: Maqolada buyuk adib Oybekning “Navoiy” romanining yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyatli tomonlari o'z talqinini topgan.

Kalit so'zlar: kitobxon, adabiyot, roman, kitob, ijod.

Keyingi yillarda xalq merosini yoshlarning ongiga singdirish ma'naviy –ma'rifiy sohadagi eng muhim masala ekanligi alohida e'tiborga olinmoqda. Zero Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “.... Bugungi kunda butun dunyoda aholining, birinchi navbatda, yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun keskin kurash borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum ham susaytirmasdan, ularni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur”.

Ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusda belgilab berilgan ustivor yo'nalishlar: adabiyot, kitobxonlik sohasiga qiziqtirish masalalarini amalga oshirish yo'lidagi eng muhim vazifalardan biri o'quvchilarga asosiy nazariy bilimlar berish bilan bir qatorda, ularda turli predmetlar bo'yicha olgan bilimlaridan fan, madaniyat, ishlab chiqarishning murakkab topshiriqlarini hal qilishda ijodiy va mustaqil foydalana olish ko'nikmalarini tarbiyalab borishdan iboratdir. Bugun dunyoga yangi O'zbekiston nomi bilan balqiyotgan uchinchi Renessans g'oyasining jozibasi shundaki, u o'z atrofiga davlatni ham, jamiyatni ham, butun xalqni ham birlashtira oladi. Bu g'oyaning milliy g'oya o'laroq



keng quloch yozishi esa, nazarimizda, barchamizning uning mazmunini chuqurroq anglashimizga, teranroq mushohada yuritishimizga bog‘liqdir.

Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘rganish shoir yashagan va ijod etgan XV asr davridan boshlangan. Bugungi XXI asr davriga qadar Navoiy ijodini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar, katta monografiyalar, risola, hikoya va romanlar yaratildi.

Oybek Alisher Navoiy hayoti va ijodi bilan o‘tgan asrning 30-yillaridan to umrining so‘ngiga qadar muntazam, jiddiy shug‘ullangan. “Navoiy” romanida Alisher Navoiyning hayot yo‘li, o‘sha davrdagi ijtimoiy hayot va murakkab siyosiy voqealar aks ettirilgan. Oybek bu asarning yaratilishi haqida o‘z tarjimai holida quyidagicha yozgan edi: «Navoiy obrazi mening ko‘pgina lirik she‘rlarimda naydo bo‘ldi va nihoyat, 1942 yilda «Navoiy» romanini tamomladim».

Roman yozish – yozuvchidan judayam ko‘p mahoratni talab etadi. Tarixiy roman yozish esa ikki hissa mashaqqatdir. Doim tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima o‘rtasidagi oltin ko‘priknı izlashda yozuvchi “tarixiy manbalarnı o‘rganadi, faktlar, voqealar, ularning ishtirokchilari haqida ma’lumotlarnı yig‘adi.

Kitobxonlar mehrini qozongan ushbu asar “Navoiy” romani haqida so‘z borganda muallif yashagan davr, shart-sharoitni nazardan qochirmaslik kerak. Oybek ko‘proq Navoiyning elparvarlik, kambag‘alparvarlik kabi jihatlariga e‘tibor qaratadi. Chindan ham Oybekda Navoiy insonparvar shoir o‘laroq xalqning farovonligi, ravnaqi, tinchligi yo‘lida tinim bilmas fidokor shaxs sifatida jonlantiriladi. To‘g‘ri, Navoiy tarixan shunday sifatlardan holi emasligi kundek ravshan.

Romanda adolatli shoh va xalq, Navoiy va urush, Navoiy va madaniyat taqdiri, Navoiy va xalqlar do‘stligi singari zamondoshlari uchun muhim, kelgusi avlodlar uchun esa ibratli bo‘lgan ijtimoiy-falsafiy qarashlarini shoir obrazi orqali olg‘a surdi”.

Mazkur romanga qadar o‘zbek adabiyotida Navoiy haqida, umuman, o‘rta asrlar feodalizmi haqida katta hajmli badiiy asar bo‘lmagan. Oybekning bu romani Navoiy dahosini ommaga



olib kirish, anglatish bilan birga, o‘quvchini besh asr naridagi tarixiy, siyosiy-ijtimoiy hayot bilan ham tanishtirgan.

O‘zbek adabiyotining eng buyuk me’mori ulug‘ Navoiy she’riyatini, Navoiyning ma’nodor aqlli ko‘zlari, xushfe’l, rahmdil, olijanob qiyofasi, asl, pok ulug‘ qalbini adib judayam chiroyli o‘tkir fikr, ajoyib ilhom bilan yaratib bergan. Alisher Navoiyning bolaligidan kitobga oshnoligi, kichik yoshda ulkan asarni yod olganligi fikrimizning isboti, tarixiy haqiqatdir. Muhimi shuki, ajdodlarimiz asosan badiiy asarlarni, hikmatlarni mutolaa qilgan, yod olgan. Bugungi yoshlarimiz ham shunchaki o‘qimasdan uqish, yod olish bilan ham mashg‘ul bo‘lsa, dunyoqarashi keng, nutqi ravon ulkan so‘z boyligiga ega bo‘lardi. Badiiy asar o‘quvchining hayot yo‘lini yorituvchi mayoq kabidir. U har qanday kishini buyuk va ezgu ishlarga qodir qiladi. A.Navoiy faqat so‘z san’atining buyuk namoyandasi, olamshumul ahamiyatga molik bo‘lgan ijodkorgina emas, ta’lim- tarbiya sohasida jiddiy fikrlarni bildirgan, bu sohada nazariy fikrlarni aytish bilan cheklanmasdan, katta hajmdagi amaliy faoliyat bilan shug‘ullangan benazir mutafakkir hamdir. «Mahbub ul - qulub» asarida bilim olib mustaqil mushohada yurita olmaydigan insonni «ustiga kitob ortilgan eshak»ka qièslaydi va «nodon» deb ataydi. Shuningdek, ulug‘ shoir asarida o‘quvchini chiroyli èzuvni, èzma nutq malakasini egallashga undaydi. U èd olish usulining imkoniyat va afzalliklarini targ‘ib qildi. Jumladan, Farhod haqida gapirib: Agar bir qatla ko‘rdi har sabaqni, Yana ochmoq yo‘q erdi ul varaqni. ...O‘qub o‘tmak, uqub o‘tmak shiori, Qolib èdida sahfa-sahfa bori,-degan misralarni bitadi. «Layli va Majnun» dostonida esa matndagi so‘zlar ma’nosini anglab o‘qishni ulug‘laydi:

Kun bor edikim besh-o‘n sabaqni

Anglab evurur erdi varaqni.

Navoiyning o‘qituvchi haqidagi qarashlari ham ibratlidir. U «Mahbub ul-qulub»da «Mudarrislar zikrida» degan alohida fasl ajratgan. Unda mudarris «o‘zi bilmagan ilmni ayturg‘a murtakib bo‘lmasa», deydi. Shogirdlarning esa ustodlar oldida har doim burchdor



ekanligini («Dabiriston ahli zikrida» fasli) ta'kidlaydi: «Shogird agar shayx ul-islom, agar qozidur, agar ustod andin rozidur – tengri rozidur.

Biz adib tadqiqotlaridagi ayrim fikr-mulohazalarga diqqat qaratishni lozim topdik. Sababi, Oybekning teran talqinlari, chuqur mushohadalari, nozik kuzatishlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan deb hisoblaymiz. Adibning she'r va she'riyat, nazm va nasr, ayrim adiblarning ijodkorligi borasidagi fikrlari ham adabiy ta'lim bilan bevosita aloqadordir.

«Haq yo'lida kim senga bir harf o'qutmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado oning haqqin yuz ganj ila».

Ulkan adib «Navoiy» romani uchun Davlat mukofoti laureati bo'ldi, bir necha orden va medallar bilan taqdirlandi. U O'zbekiston xalq yozuvchisi, Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti sovrindori ham bo'lgan. Yozuvchining asarlari o'zbek adabiyotining jahon aro shuhratini yanada oshirdi. Ustoz mahorati yosh yozuvchilar uchun ijod dorilfununiga aylandi. Oybekning o'lmas asarlari ma'naviy xazinamizdan mangu o'rin oldi va umumxalq mulki bo'lib qoldi. Uning eng yaxshi asarlari jahon adabiyoti xazinasiga ham kirgan.

Oybekning „Navoiy“ romanini yozishdan maqsadi, zamondoshlarini o'tmishning achchiq voqealaridan saboq olishi, xalq va Vatan manfaati yo'lida yashab, ijod qilgan siymolar va ularning fazilatlaridan ibrat chiqarishi bo'lgan edi. «Navoiy» romani o'zining badiiy-estetik qimmatini, mazmun-mohiyati, voqealarning izchilligi, tarixiy haqiqatning ko'zgusi bola olganligi, qahramonlarning bir-biri bilan, ya'ni to'qima va tarixiy obrazlarning uyg'unlashganligi bilan yuksak tahsinga loyiqdir. Shu bois, bu asar mana necha yillarki, o'z qadr-qimmatini yo'qotgan emas. Chunki chinakam badiiy san'at asari hech qachon o'lmaydi. Bunday asarlarni xalq unutmaydi. Oybekning o'zbek mumtoz adabiyotida yorqin siymo, ulug' mutafakkir sanalgan Navoiy obrazini go'zal tasvirlab bera olgan bu romani mangu yashayveradi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev.Sh.Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Sharafiddinov O.Adabiyot mangu yashaydi//Jahon adabiyoti.1998.№1.